



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



## ZAMONAVIY TA'LIMDA SUN'iy INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Sh.O.Mamayoqubova

N.Zubaydova

Ilmiy raxbar

**Abduvaxidov Begali Nurali o'g'li**

SamDChTI 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda sun'iy intellekt misli ko'rilmagan darajada jadallik bilan rivojlanib bormoqda va u deyarli barcha sohalarni qamrab olmoqda, xususan ta'lif sohasini ham. Ushbu maqolada AI (Artificial Intelligence sun'iy intellekt)ning ta'lif sohasida foydalanish afzalliklari, ta'lif sifatiga ijobjiy ta'siri, uning yordamida ta'lif jarayonini sifatli tashkil etish hamda ta'lif jarayonida ko'plab qulayliklar yaratishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** AI, sun'iy intellekt, individual o'r ganish, ta'lif algoritmlari, innovatsion ta'lif, intensiv ta'lif dasturi

Biz jadallik bilan rivojlanib boryotgan globallashuv zamonda yashayapmiz. Tabiiyki, bu zamonaviy fikrlashni va zamonaviy dunyoqarashni shaklantirish va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Hozirgi hayotimizni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilolmaymiz va u hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Xususan ta'lif sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Ta'limgagi texnologiyalar va ilovalar tezda yangilanib bormoqda hamda kengaytirilmoqda. Bundan tashqari, aqli mahsulotlarning uzluksiz rivojlanishi odamlarning o'qishi, ishi va hayotiga katta qulaylik va innovatsiyalar olib kelmoqda.

So'nggi yillarda yosh avlodni sifatli ta'lif bilan taminlashga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. XXI asrga kelib ilm-fan shu darajda rivojlanib ketdiki, hech bir kunni fan yutuqlari va texnikalarsiz tasavvur etish imkonsiz bo'lib qoldi. Ayniqsa axborotlashgan jamiyat va sun'iy intellekt kabi tushunchalar hayotimizning asosiy bo'lagiga aylanib ulgurdi. AI (inglizcha: Artificial Intelligence -sun'iy intellekt) atamasi kundalik hayotimizda tez-tez uchraydi va uni qo'llash butun dunyoda rivojlanib bormoqda. So'nggi paytlarda sun'iy intellekt turli tarmoqlar va ijtimoiy infratuzilmalarga kiritilmoqda.

Bugungi kunda, ta'lif sohasida sun'iy intellekt (SI) intensiv ravishda o'z o'rinni egallayapti. SI, ma'lumotlarni o'r ganish, tahlil qilish, o'zgartirish va tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan axborot tizimlarini yaratishda katta ro'lni o'ynaydi. Bu tizimlar, o'r ganish jarayonida ma'lumotlarni tan olish, aniq maqsadlar uchun ma'lumotlarni qidirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, va natijalarni ko'rsatish kabi vazifalarni bajarishda yordam beradi. Tabiiy va insoniy imkoniyatlarga qaraganda,



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



sun'iy intellekt (SI) ta'limgan sohasida bir nechta foydalarni olib keladi. Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'limgan sohasidagi bir nechta foydali jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Birinchi navbatda, SI ta'limgan oluvchining vaqtini tejashga va ta'limgan muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. SI ning imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, u sizni qiziqtirgan savollarga javob berishi, berilgan buyruq asosida rasm chizishi yoki turli mavzularda taqdimotlar yaratishi va xattoki, turli referat va maqolalar ham yozib bera olish imkoniyatiga ega.

SI, o'quvchilarning o'zlarini boshqarish, o'zlashtirish, tahlil qilish va o'zlarining individual o'rganish usullarini tahlil qilishlariga yordam beradi. Uning ta'limgan algoritmlari, o'quvchilarning individual xususiyatlari va o'rganish usullari asosida moslashtiriladi, bu esa har bir o'quvchining o'ziga xos ta'limgan yo'lidagi qobiliyatlarini oshiradi. Shuningdek, o'quvchiga mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida bilim darajalari, qiziqishlari, kamchiliklari va xususiyatlari asosida, SI ta'limgan dasturlarini moslashtiradi va har bir o'quvchiga o'zlashtirilgan ta'limgan yo'lidagi eng yaxshi natijalarni olish imkonini beradi. SI, o'quvchilarning ma'lumotlarini baholash va uning bo'yicha maxsus rejalashtirishda yordam beradi. O'quvchining xususiyatlari, bilim darajasining shakllanishi va talabalarning qiziqishlari asosida, SI ta'limgan dasturlarini maxsuslashtirish va maxsus tavsiyalar berish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt nafaqat o'quvchi-talabalar balki, o'qituvchilarga ham ta'limgan berish jarayonida ko'pgina qulayliklar yaratadi. Masalan, intensiv ta'limgan dasturini yaratish va unga ko'ra darsni yanada qiziqarli va mazmunliroq tashkillashtirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlariga oid mavzularni o'rganish va bular haqida ma'lumotlar topish, tahlil qilish va tushuntirish imkoniyatini oshirish uchun SI yordamida turli metodlardan foydalanish, turli sohalar genetika, robototexnika, ko'rgazmali o'rganish, tabiiy tillar o'rganish va boshqalar kabi sohalarni o'rganish mumkin. Sun'iy intellektdagi qo'llanmalar va ilovalar yordamida o'qituvchilar, talabalarni baholash, ta'limgan dasturlarini yaratish, so'zlar, gaplar va matematik masalalarini o'rganish uchun yordam beradi. Bu ilovalardan foydalanish orqali, ta'limgan interaktivligi va intensivligi oshiriladi.

Sun'iy intellektdan ta'limgan foydalanishning foydalari jihatlari:

- O'quvchi va o'qituvchining vaqtini tejab ta'limgan sifatini yanada yaxshilashga yordam berish
- O'quvchining o'zlashtirish darajasini oshirish
- O'qituvchiga SI yordamida yangi metodlar yaratishi va undan ta'limgan jarayonida foydalanish imkoniyati
- Turli animatsiyalar va ko'rgazmali qurollardan foydalanish
- O'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib dars jarayonini tashkillashtirish

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



- O'quvchining individual o'rganish salohiyatini oshirish va o'rgangan bilimini yana mustahkamlashga yordam berish kabi ko'pgina qulayliklar yaratadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, sun'iy intellekt o'quvchi va o'qituvchilarga innovatsion ta'lif uslubidan foydalanish, ta'lif materiallarini ishlab chiqish, individual shug'ullanish tajribalarni va ta'lif sifatini oshirishda samarali yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.O. Mamayoqubova. "Pedagogical conditions of professional development of higher Educational establishment teacher Xalqaro so'z san'ati jurnali. ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. 2022 5 son, 48 p
2. F.A. Nurmuxamedova. "Sun'iy intellekt dunyo nighida" Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) jurnali. 2022 7 son 53p
3. M.A. Islomova "Sun'iy intellektni chet tilini o'rganishdagi afzalliklari" Pedagos journal. ISSN: 2181-4027 \_ SJIF: 4.995 . 2023 37 son 27-29 p
4. N.G'. To'ychiyeva "Oliy ta'limda sun'iy intellektning ahamiyati" "COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES" 2022 3 son 254-255 p